New Uzbekistan University

| | |
|---|---|
| **“Yangi O‘zbekiston” universitetining iqtidorli talabalariga davlat grantini berish tartibi to‘g‘risida** | **REGULATION on the Procedure for Awarding State Grants to Talented Students of New Uzbekistan University** |
| NIZOM | |
| **1-bob. Umumiy qoidalar** | **Chapter I. General Provisions** |
| 1. Ushbu Nizom Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) tizimidagi “Yangi O‘zbekiston” universitetining (keyingi o‘rinlarda — Universitet) bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida iqtidorli talabalarning ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat grantini berish tartibini belgilaydi. | **1.** This Regulation defines the procedure for awarding state grants in support of education for talented students enrolled in undergraduate and graduate programs at New Uzbekistan University (hereinafter – the University), which operates under the Agency for Specialized Educational Institutions under the Ministry of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan (hereinafter – the Agency). |
| 2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi: | **2.** The following key terms are used in this Regulation: |
| **grant talabgori** — Universitetga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha belgilangan tartibga muvofiq to‘liq davlat granti asosida o‘qishi belgilangan, shuningdek, kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tib, yuqori o‘rinlarni egallagan abituriyent hamda o‘quv yili yakuni bo‘yicha akademik ko‘rsatkichlari eng yuqori bo‘lgan talabalar; | *Grant applicant* – a candidate who is eligible for full state-funded education at the University in accordance with the established admission procedures, including applicants who have successfully passed the entrance examinations and ranked among the highest scorers, as well as current students with the highest academic performance by the end of the academic year; |
| **davlat granti** — O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan Universitetda o‘qish qiymati qonunchilikda belgilangan tartibda qoplab beriladigan mablag‘ miqdori; | *State grant* – a financial amount provided to cover tuition fees at the University from the State Budget of the Republic of Uzbekistan, in accordance with the procedures established by law; |
| **stipendiat** — qonunchilikka muvofiq to‘liq yoki tabaqalashtirilgan tartibda davlat granti taqdim etilgan Universitet talabalari. | *Grant recipient (stipendiat)* – a student of the University who has been awarded a full or differentiated state grant in accordance with applicable legislation. |
| 3. Universitetni tamomlagandan so‘ng Agentlik yo‘llanmasiga asosan egallagan mutaxassisligi bo‘yicha mulkchilik shakllaridan qat’i nazar respublikada faoliyat yurituvchi tashkilotlarda 5 yilgacha to‘liq bandlik rejimida ishlab berish majburiyatini o‘z zimmasiga olgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi yoki O‘zbekiston Respublikasi hududida doimiy | **3.** A citizen of the Republic of Uzbekistan, or a stateless person permanently residing in the territory of the Republic of Uzbekistan, who undertakes the obligation to work in a full-time capacity for up to five years in an organization operating in the Republic—regardless of ownership— |

| | |
|---|---|
| yashab turgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxs davlat granti talabgori bo‘lishi mumkin. | according to the specialization obtained upon graduation from the University and in accordance with the assignment of the Agency, may qualify as a grant applicant. |
| 4. Universitetda iqtidorli talabalarning ta’lim olishini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat granti: | **4.** State grants in support of education at the University may be awarded to the following categories: |
| xalqaro darajadagi tegishli dasturlar (Intemational Baccalaureate, Advanced Placement, Intemational Advanced Levels) diplomi yoki sertifikatiga ega Prezident maktablari bitiruvchilariga; | Graduates of Presidential Schools who hold diplomas or certificates from relevant international programs (International Baccalaureate, Advanced Placement, International Advanced Levels); |
| Agentlik tizimidagi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar uchun ajratiladigan qabul parametrlariga muvofiq kirish imtihonlari asosida ushbu maktablar bitiruvchilariga; | Graduates of creative or specialized schools under the Agency, based on entrance examinations and admission quotas established for such schools; |
| Universitetga kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan Xalqaro matematika olimpiadasi (IMO), Xalqaro fizika olimpiadasi (IPhO), Xalqaro kimyo olimpiadasi (IChO), Xalqaro biologiya olimpiadasi (IBO), Xalqaro informatika olimpiadasi (IOI) g‘oliblariga; | Winners of the International Mathematical Olympiad (IMO), International Physics Olympiad (IPhO), International Chemistry Olympiad (IChO), International Biology Olympiad (IBO), and International Olympiad in Informatics (IOI), who have successfully passed the University entrance examinations; |
| Universitetga kirish imtihonlarida yuqori ball to‘plagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga; | Citizens of the Republic of Uzbekistan who have achieved high scores in the University entrance examinations; |
| Universitetga kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan oilalar farzandlariga nisbatan taqdim etiladi. | Applicants from families listed in the “Unified Register of Social Protection” who have successfully passed the University entrance examinations. |
| 5. Davlat granti Universitetning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kunduzgi ta’lim shaklida tahsil oladigan grant talabgorlari uchun ajratiladi. | **5.** The state grant is allocated to grant applicants enrolled in full-time undergraduate and graduate programs at the University. |
| 6. Davlat granti mazkur Nizomga ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq taqdim etiladi. | **6.** The state grant shall be awarded in accordance with the scheme provided in the annex to this Regulation. |
| 7. Grant talabgorlari bo‘lgan abituriyentlar Universitetga qabul bo‘yicha belgilangan tartibda onlayn platforma orqali ariza bilan birga hujjatlarni taqdim etish jarayonida mazkur Nizomning 4-bandida ko‘rsatilgan grant talabgorlari toifasiga tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarning PDF | **7.** During the application process through the online platform, grant applicants must submit scanned PDF copies of documents confirming their eligibility under the categories outlined in paragraph 4 of this Regulation, except for citizens of Uzbekistan who have achieved high entrance exam |

(portable document format) formatida skaner qilingan nusxalarini ham ilova qiladi, Universitetga kirish imtihonlarida yuqori ball to‘plagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bundan mustasno.

Ushbu hujjatlar abituriyentlar tomonidan Universitetga qabul qilish bo‘yicha arizalarga belgilangan muddatlarda taqdim etilishi shart. Qabul qilish muddati tugagandan so‘ng hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmaydi.

8. Davlat grantini olish uchun alohida ariza topshirilmaydi.

**2-bob. Davlat grantini ajratish tartibi**

9. Davlat granti Universitet tomonidan har bir bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi uchun belgilangan qabul kvotasi doirasida Agentlik bilan kelishilgan holda ajratiladi.

10. Davlat grantining to‘liq (100 foiz) miqdori Universitetda bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha belgilangan to‘lov-kontraktning to‘liq (100 foiz) miqdoriga teng bo‘ladi.

11. Quyidagi toifaga kiruvchi grant talabgoriga to‘liq (100 foiz) miqdorda davlat granti ajratiladi:

a) xalqaro darajadagi tegishli dasturlar (Intemational Baccalaureate, Advanced Placement, Intemational Advanced Levels) diplomi yoki sertifikatiga ega Prezident maktablari bitiruvchilari;

b) Universitetga kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan:

Xalqaro matematika olimpiadasi (IMO), Xalqaro fizika olimpiadasi (IPhO), Xalqaro kimyo olimpiadasi (IChO), Xalqaro biologiya olimpiadasi (IBO), Xalqaro informatika olimpiadasi (IOI) g‘oliblari;

bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha belgilangan umumiy qabul kvotalarining 5 foizi miqdorida

scores. These documents must be submitted within the admission deadlines set by the University. After the deadline, no amendments or additions to the submitted documents will be accepted.

**8.** A separate application for the state grant is not required.

**Chapter II. Procedure for the Allocation of State Grants**

**9.** State grants shall be allocated by the University within the admission quotas established for each undergraduate program and graduate specialization, in coordination with the Agency.

**10.** The full (100%) amount of the state grant shall be equal to the full (100%) amount of the tuition fee established for undergraduate and graduate programs at the University.

**11.** A full (100%) state grant shall be awarded to applicants who fall under the following categories:

a) Graduates of Presidential Schools who hold diplomas or certificates from relevant international programs (International Baccalaureate, Advanced Placement, International Advanced Levels);

b) Applicants who have successfully passed the University entrance examinations and are winners of the:

International Mathematical Olympiad (IMO),

International Physics Olympiad (IPhO),

International Chemistry Olympiad (IChO),

International Biology Olympiad (IBO),

International Olympiad in Informatics (IOI);

ajratilgan kvota bo‘yicha o‘qishga qabul qilingan Agentlik tizimidagi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar bitiruvchilari;

“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan oilalar farzandlari.

Agentlik tizimidagi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar bitiruvchilari uchun belgilangan umumiy qabul kvotalarining 5 foizi miqdorida ajratilgan qabul kvotasi doirasiga kirmagan Agentlik tizimidagi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar bitiruvchilari umumiy tartibda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha davlat grantiga talabgorlik qilishlari mumkin.

12. Mazkur Nizomning 11-bandiga muvofiq davlat granti taqdim etilgan stipendiatlar uchun butun o‘quv yillari mobaynida to‘liq davlat grantini taqdim etish tartibi saqlab qolinadi.

Bunda stipendiatning o‘quv yili (semestr) yakuniga ko‘ra belgilangan akademik ko‘rsatkichlari (Academic Performance) qoniqarsiz bo‘lganligi natijasida talabaning tegishli fanni qayta o‘qishi bilan bog‘liq xarajatlar o‘z hisobidan amalga oshiriladi.

13. Universitetga kirish imtihonlarida yuqori ball to‘plagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda o‘tgan o‘quv yili yakuniga ko‘ra eng yuqori akademik ko‘rsatkichlarga (Academic Performance) erishgan Universitet talabalariga (ushbu Nizomning 11-bandida ko‘rsatilgan grant talabgorlaridan tashqari) davlat granti bir o‘quv yili uchun quyidagi jadvalga muvofiq tabaqalashtirilgan tartibda ajratib beriladi:

| **Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi bo‘yicha eng yuqori o‘rinni egallagan** | **Davlat granti kvotasi** (har bir bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligi | **Bir nafar abituriyent (talaba) uchun moliyalashtiriladigan davlat granti** (foiz hisobida) |
|---|---|---|

c) Graduates of creative and specialized schools under the Agency who are admitted under a quota constituting 5% of the total admission quota established for undergraduate and graduate programs;

d) Children of families included in the “Unified Register of Social Protection.”

Graduates of creative and specialized schools under the Agency who are not admitted within the 5% quota specified above may still apply for state grants in undergraduate and graduate programs under the general procedure.

**12.** Grant recipients covered under paragraph 11 of this Regulation shall continue to receive the full state grant throughout the entire duration of their academic program.

In such cases, however, if a student fails to achieve satisfactory academic performance (as defined by the University) at the end of the academic year or semester and is required to retake a subject, the related expenses must be covered by the student personally.

**13.** Citizens of the Republic of Uzbekistan who achieve high scores in the University entrance examinations, as well as current University students who demonstrate the highest academic performance based on the results of the previous academic year (excluding those covered under paragraph 11 of this Regulation), may be awarded differentiated state grants for one academic year in accordance with the following table:

| **Group of top-ranking undergraduate and graduate applicants (students) based on descending order of scores** | **State Grant Quota (as a percentage of the total quota for each undergraduate program and** | **State Grant Amount Funded per Applicant (Student) (as a percentage))** |
|---|---|---|

| **abituriyentlar (talabalar) guruhi** (ballar ketma-ketligida) | bo‘yicha umumiy kvotaga nisbatan) | |
|---|---|---|
| 1-guruh | 10 foiz | 100 |
| 2-guruh | 10 foiz | 70 |
| 3-guruh | 15 foiz | 50 |

14. Tabaqalashtirilgan davlat grantini ajratish belgilangan mezonlarga asosan Universitet tomonidan har o‘quv yili yakuniga ko‘ra qayta ko‘rib chiqiladi va belgilangan tartibda grant talabgorlariga taqdim etiladi.

15. Tabaqalashtirilgan davlat grantini taqdim etish jadvalining 2-3-guruhlariga kiruvchi abituriyentlar (talabalar) tomonidan Universitetda o‘qish uchun belgilangan to‘lov-kontraktining qolgan miqdori shartnomada belgilangan muddatlarda to‘lanadi.

16. Grant talabgorlari ro‘yxati har o‘quv yili boshlanishining birinchi besh ish kuni mobaynida Universitet rektorining buyrug‘iga asosan tasdiqlanadi.

Grant talabgorlari o‘rtasida teng ballar to‘plangan taqdirda, teng ball to‘plagan barcha grant talabgorlari uchun davlat granti taqdim etiladi.

17. Agentlik, Universitet va stipendiatlar o‘rtasida belgilangan tartibda har o‘quv yili boshlanishining birinchi o‘n ish kuni mobaynida davlat grantini taqdim etish, qaytarish hamda ishlab berish shartlarini nazarda tutuvchi uch tomonlama shartnoma (keyingi o‘rinlarda — shartnoma) rasmiylashtiriladi.

| | **graduate specialization)** | |
|---|---|---|
| Group 1 | 10% | 100 |
| Group 2 | 10% | 70 |
| Group 3 | 15% | 50 |

**14.** The allocation of differentiated state grants shall be reviewed annually by the University based on the established criteria and shall be awarded to eligible applicants in accordance with the prescribed procedure.

**15.** Applicants (students) who fall into Groups 2 and 3 of the differentiated state grant allocation table shall be responsible for paying the remaining portion of the tuition fee, as specified in the student contract, within the established deadlines.

**16.** The list of grant recipients shall be approved by an order of the University Rector within the first five working days of the beginning of each academic year.In cases where two or more applicants have received equal scores, the state grant shall be awarded to all such applicants with equal scores.

**17.** A tripartite agreement (hereinafter – the Agreement) outlining the conditions for the allocation, reimbursement, and post-graduation service obligation related to the state grant shall be concluded between the Agency, the University, and the grant recipient (stipendiat) within the first ten working days of the academic year, in accordance with the established procedure.

| 3-bob. Davlat grantini moliyalashtirish | Chapter III. Financing of the State Grant |
|---|---|
| 18. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davlat grantini berish xarajatlari uchun mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchi sifatida Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligiga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari doirasida nazarda tutiladi.<br><br>O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetidan davlat grantini berish xarajatlari uchun ajratiladigan mablag‘lar Agentlikning Moliya vazirligi G‘aznachiligida ochilgan alohida shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida nazarda tutiladi.<br><br>19. Agentlik belgilangan tartibda tuzilgan uch tomonlama shartnomaga muvofiq har o‘quv yili boshlanishining birinchi o‘n besh ish kuni mobaynida Universitetning bank hisobvarag‘iga tegishli mablag‘larni moliyalashtirib beradi.<br><br>20. O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetidan Agentlikka davlat grantini berish xarajatlari uchun ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash, ro‘yxatdan o‘tkazish va unga o‘zgartirishlar kiritish budjet qonunchiligida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.<br><br>**4-bob. Grant talabgorlarining huquq va majburiyatlari**<br><br>21. Quyidagilar grant talabgorlarining huquqlari hisoblanadi:<br><br>kirish imtihonlarida eng yuqori o‘rinlarni egallagan va o‘quv yili yakunidagi akademik ko‘rsatkichlaridan (Academic Performance) kelib chiqib davlat grantini to‘liq yoki qisman belgilangan tartibda olish;<br><br>Universitetda to‘lov-kontrakt asosida o‘qigan holda keyingi o‘quv semestrlari yakuni bo‘yicha akademik ko‘rsatkichlari (Academic Performance) yuqori bo‘lgan taqdirda, davlat grantiga talabgor bo‘lish; | **18.** The expenses for awarding state grants shall be covered from the funds of the State Budget of the Republic of Uzbekistan within the limits of the allocated funds provided to the Agency for Specialized Educational Institutions as a first-level budget administrator from the republican budget of the Republic of Uzbekistan.<br><br>The funds allocated from the republican budget of the Republic of Uzbekistan for the expenses related to awarding state grants shall be credited to a separate treasury account of the Agency opened with the Treasury of the Ministry of Finance.<br><br>**19.** In accordance with the tripartite agreement concluded in the prescribed manner, the Agency shall transfer the relevant funds to the University’s bank account within the first fifteen working days of the academic year.<br><br>**20.** The preparation, approval, registration, and amendment of the expenditure estimates for the funds allocated to the Agency from the republican budget of the Republic of Uzbekistan for the purpose of awarding state grants shall be carried out in accordance with the procedures established by the budget legislation.<br><br>**Chapter IV. Rights and Obligations of Grant Applicants**<br><br>**21.** The following shall be considered the rights of grant applicants:<br><br>To receive a full or partial state grant, in accordance with the established procedure, based on their top-ranking results in entrance examinations and academic performance at the end of the academic year;<br><br>To become eligible for a state grant in subsequent academic semesters if they are studying at the University on a tuition-contract basis and demonstrate high academic performance (Academic Performance); |

davlat grantidan voz kechish va Universitetda oʻqishni toʻlov-kontrakt asosida davom ettirish.

22. Toʻliq davlat granti asosida taʼlim olgan bitiruvchilarga (stipendiatlarga) oʻqishni tamomlagandan soʻng, biroq ikki oy muddatdan kechikmasdan Agentlik yoʻllanmasiga asosan egallagan mutaxassisligi boʻyicha mulkchilik shakllaridan qatʼi nazar respublikada faoliyat yurituvchi tashkilotlarda 5 yilgacha toʻliq bandlik rejimida ishlab berish majburiyati yuklanadi.

Davlat tashkilotlarida kadrlarga boʻlgan ehtiyoj Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan aniqlanadi hamda davlat granti sohibi boʻlgan bitiruvchilarni taqsimlash uchun Agentlikka taqdim etiladi.

Oʻqish davrida davlat grantini qisman olgan bitiruvchilarning davlat granti umumlashtirilib, majburiy ishlab berish muddati mutanosib ravishda, biroq kamida bir yilgacha boʻlgan muddatga yaxlitlanib hisoblanadi.

23. Magistratura bosqichida yoki doktoranturada oʻqishni davom ettirayotgan Universitet bakalavriat yoki magistratura bosqichi bitiruvchilarining (stipendiatlarning) majburiy ishlab berish muddati magistratura bosqichida yoki doktoranturada oʻqish davri tugagandan soʻng boshlanadi.

24. Davlat granti asosida taʼlim olgan bitiruvchi (stipendiat) mazkur Nizomda hamda shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda, unga ajratilgan davlat grantining qiymati belgilangan tartibda Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qaytariladi.

## 5-bob. Yakunlovchi qoidalar

25. Ushbu Nizomni qoʻllashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

26. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor boʻlgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

To voluntarily decline the state grant and continue their studies at the University on a tuition-contract basis.

**22.** Graduates (stipendiats) who have studied under a full state grant are required, after completing their studies, but no later than within two months, to work full-time for up to five years in organizations operating in the Republic of Uzbekistan—regardless of the form of ownership—according to their specialization and based on an assignment issued by the Agency.

The demand for specialists in state institutions shall be determined by the Ministry of Employment and Labor Relations and submitted to the Agency for distribution of graduates who have received state grants.

For graduates who received partial state grants during their studies, the total amount of the received grants shall be consolidated, and the mandatory work period shall be proportionally calculated but not less than one year.

**23.** For University graduates (stipendiats) who continue their studies at the master's or doctoral level, the mandatory work period shall commence after the completion of their studies at the master's or doctoral level.

**24.** If a graduate (stipendiat) who studied under a state grant fails to fulfill the obligations specified in this Regulation or the Agreement, the amount of the state grant provided to them shall be subject to reimbursement to the State Budget of the Republic of Uzbekistan in accordance with the established procedure.

## Chapter V. Final Provisions

**25.** Disputes arising in the application of this Regulation shall be resolved in accordance with the procedures established by the legislation.

**26.** Persons found responsible for violating the provisions of this Regulation shall be held accountable in the manner prescribed by law.

“Yangi O‘zbekiston” universitetining iqtidorli talabalariga davlat grantini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
ILOVA

**“Yangi O‘zbekiston” universitetining iqtidorli talabalariga davlat grantini berish tartibi**

SXEMASI

| **Bosqichlar** | **Tadbirlar** | **Bajarish muddatlari** |
|---|---|---|
| 1-bosqich | Grant talabgori (xalqaro darajadagi tegishli dasturlar diplomi yoki sertifikatiga ega Prezident maktablari bitiruvchilari, Universitetga kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan xalqaro matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika olimpiadalari g‘oliblari, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha belgilangan umumiy qabul kvotalarining besh foizi miqdorida ajratilgan kvota bo‘yicha o‘qishga qabul qilingan Agentlik tizimidagi ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar bitiruvchilari, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan oilalar farzandlari, Universitetga kirish imtihonlarida yuqori ball to‘plagan | Universitetga qabul qilish bo‘yicha belgilangan muddatlarda |

Annex

Scheme for the Procedure of Awarding State Grants to Talented Students of New Uzbekistan University

| **Stages** | **Activities** | **Implementation Deadlines** |
|---|---|---|
| Stage 1 | Submission of scanned copies (in PDF format) of documents confirming the applicant’s eligibility under the categories of state grant recipients specified in Paragraph 4 of this Regulation, as part of the online application process for admission to the University, by an applicant who is a state grant candidate.<br><br>(Such candidates include: graduates of Presidential Schools holding diplomas or certificates from relevant international programs; winners of international Olympiads in mathematics, physics, chemistry, biology, and informatics who have successfully passed the University’s entrance examinations; graduates of specialized and creative schools under the Agency admitted under the 5% quota of the total number of students enrolled in undergraduate and graduate programs; children of families registered in the | Within the deadlines established for university admission |

| | | |
|---|---|---|
| | O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari) bo‘lgan abituriyent tomonidan Universitetga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha belgilangan tartibda onlayn platforma orqali ariza bilan birga hujjatlarni taqdim etish jarayonida mazkur Nizomning 4-bandida ko‘rsatilgan davlat granti talabgorlari toifasiga tegishli ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarning PDF (portable document format) formatida skaner qilingan nusxalarini ilova qilish. | |
| 2-bosqich | Grant talabgorlari ro‘yxatini har o‘quv yili boshlanishining birinchi besh ish kuni mobaynida Universitet rektorining buyrug‘iga asosan tasdiqlash. | Har o‘quv semestri boshlanishining birinchi 5 ish kuni mobaynida |
| 3-bosqich | Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi, Universitet va stipendiatlar o‘rtasida belgilangan tartibda davlat grantini taqdim etish, qaytarish hamda ishlab berish shartlarini nazarda tutuvchi uch tomonlama shartnomani rasmiylashtirish. | Har o‘quv semestri boshlanishining birinchi 10 ish kuni mobaynida |

| | | |
|---|---|---|
| | Unified Social Protection Registry; and citizens of the Republic of Uzbekistan who have obtained high scores in the University’s entrance examinations.) | |
| Stage 2 | Approval of the list of state grant recipients by an order of the University Rector within the first five working days of the beginning of each academic year | Within the first five working days from the beginning of each academic semester |
| Stage 3 | Formalization of a tripartite agreement between the Agency for Specialized Educational Institutions, the University, and the stipendiat, in accordance with the established procedure, defining the terms and conditions for the allocation, repayment, and post-graduation employment obligations related to the state grant. | Within the first ten working days from the beginning of each academic semester |
| Stage 4 | Disbursement of the allocated funds to the University’s bank account by the Agency for Specialized Educational Institutions in accordance with the tripartite agreement concluded under the established procedure. | Within the first fifteen working days from the beginning of each academic semester |

New Uzbekistan University

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 4-bosqich | Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tomonidan belgilangan tartibda tuzilgan uch tomonlama shartnomaga muvofiq Universitetning bank hisobvarag'iga tegishli mablag'larni moliyalashtirib berish. | Har bir o'quv semestri boshlanishining birinchi 15 ish kuni mobaynida | Stage 5 | Graduates who have studied under the state grant scheme are required, upon completion of their studies, to work for up to five years in full-time employment within the Republic of Uzbekistan, in organizations operating regardless of their form of ownership, in a position corresponding to their field of specialization, based on a referral from the Agency for Specialized Educational Institutions. | For a period of five years after graduation |
| 5-bosqich | Davlat granti asosida ta'lim olgan bitiruvchilarning o'qishni tamomlagandan so'ng Agentlik yo'llanmasiga asosan egallagan mutaxassisligi bo'yicha mulkchilik shakllaridan qat'i nazar respublikada faoliyat yurituvchi tashkilotlarda besh yilgacha to'liq bandlik rejimida ishlab berishi. | O'qishni tamomlagandan keyin besh yil davomida | | | |